

YOZUV VA HUSNIXAT DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNLOGIYALAR VA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

Norqobilova Rayhona Davlatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

Toshpo'latova Sarvinoz Elmurod qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuv va husnixat darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va amaliy o'yinlardan samarali foydalanish usullarini yoritib o'tganman.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ta'limiy o'yinlar, qiziqtirish, didaktika, Usul, ko'nikma, malaka.

Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bugungi kunda ustoz va murabbiylarimiz oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Maktabda o'qitilayotgan barcha fanlar qatorida boshlang'ich sinflarda yozuv va husnixat

Xususan, husnixat darslarida ta'limiy o'yinlarni qo'llash o'quvchilarning grafik malakalarini mustahkamlash bilan birga, husnixatga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi. Ta'limiy o'yinlar sinfdagi bolalarning erkin harakat qilishlarini, faolliklarini, masalaga zukkolik bilan yondashishlarini, shu bilan birga, ularning bir-birlari bilan ahil va inoqlikda harakat qilishlarini ta'minlaydi. Boshlang'ich ta'limda husnixat darslarini o'ziga xos yangicha qurilish bilan tashkil qilish to'g'risidagi uslubiy tavsiyalarning kamligi murabbiylarimizni bir oz ranjitadi. Chunki darsda o'quvchilar bilan bir xil qolipda ishlash, ularni doimiy qo'llaniladigan namunaga qarab yozdirish yoki ko'chirtirish, nusxa ko'chirishusulidan foydalanish faqat o'quvchini emas, balki o'qituvchilarimizni ham zeriktiradi. Yozuv va husnixat darslari uchun ta'limiy o'yinlarni izlab topish o'qituvchidan kasbiy mahoratni talab qiladi. Ta'limiy o'yinlarni dars jarayonida tajribadan o'tkazish mobaynida uning bir qator afzalliklarini bilish mumkin. O'yinlar xilma-xil bo'lib, ularni o'quvchilarning yosh xususiyati hamda yozuv ko'nikmalarini egallash

darajasiga ko'ra o'tkazish muhimdir. Husnixat darslarida yozuv materialini qo'llashga doir o'yinlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Unsurlar asosidagi o'yinlar.
2. Harflar asosidagi o'yinlar.
3. Bo'g'inlar asosidagi o'yinlar
4. So'zlar asosidagi o'yinlar.

Unsurlar va harflar asosidagi o'yinlarni, asosan, savod o'rgatish davrida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. 1-sinfda o'quvchilar kamida 6-8 ta harfni yozishni o'rganib bo'lganlaridan so'ng o'yin mashg'ulotlarini tashkil qilish yaxshi samara beradi. Bo'g'inlar asosidagi o'yinlar esa 12-14 ta harfni o'rganib bo'lganlaridan so'ng tavsiya etiladi. So'zlar asosidagi o'yinlarni "Alifbe" kitobini tugatganlaridan keyin o'tkazish mumkin. Chunki o'yinlarni o'tkazish davomida o'quvchilarning savodxonlik hamda imkoniyat darajasini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Husnixat darslarida ta'limiy o'yinlarni o'tkazish uchun asosiy maydon sinf xattaxtasidir. Albatta, har bir o'yin materiali o'quvchining yozuv daftariga qayd etib boriladi. O'yin o'tkazish chog'ida o'qituvchi yoki biror o'quvchi tomonidan yozuv materialini faqat og'zaki aytib turish bilan chegaralanmay, bir nechta didaktik vositalardan: rasmlardan, o'yinchoqlardan, tarqatmali materiallardan foydalanish mumkin. Quyida husnixat darslarida qo'llanilishi lozim bo'lgan bir necha ta'limiy o'yinlarning stsenariylarini keltirib o'tamiz.

"Unsurlarni tanib ol" o'yini. O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni ikkita guruhga bo'ladi va doskaga ikkitadan unurni yozib boradi. O'quvchilar navbat bilan shu unsur qatnashgan harflarni yozadilar. Yozuv vaqtida bolalarning shu unsur qatnashgan harfni to'g'ri topa olishigagina emas, balki yozuv sifatiga ham alohida e'tibor berib boradi.

Masalan: tayoqcha unsuri yordamida **n, m, p, z** harflari, cho'zinchoq doira yordamida esa **o, a, o', q, d, g, g'** harflari hosil qilinadi. O'qituvchi navbat bilan doskadagi unsurlarni o'zgartirib turadi. Bu o'yinni 2-sinfda ham o'tkazish mumkin. Chunki bu sinfda

harflarning genetik guruhlarga bo'linishi asosida husnixat darslari olib boriladi. Ma'lumki, "Yozuv daftari"dagi harflarning joylashish tartibi "Alifbe" kitobidagi harflarning joylashuvi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilar birinchi bo'lib **o** harfini yozishni o'rganadilar. **O** harfi keyingi harfga ulanishi jihatidan o'ziga xos yo'nalishga ega bo'lib, o'quvchidan alohida grafik hushyorlikni talab qiladi. Bu harf birinchi o'rganilganligi, uning grafik tasviri o'quvchining yodida yaxshisaqlanib qolishi hamda keyingi harfga ulanishidagi murakkabligini hisobga olib,

"Oyga sayohat" o'yinini o'tkazish mumkin. Albatta, o'qituvchi o'yinning nomlanishidagi ramziylikni ham bolalarga tushuntirishi, ya'ni oy so'zida **o** harfining qatnashganligini va **o** harfi oyga o'xshashligini ham aytib o'tadi. Shundan so'bolalar **o** harfi qatnashgan so'zlarni musobaqa tarzida xattaxtaga yozib boradilar. **O** harfi qatnashgan so'zlar avval ikkita harfdan, so'ng uchta, to'rtta, beshta harfdan iborat bo'lishi kerak. Masalan: **on, ot, oq, ol, ov, ona, ota, non, don, bola, bobo, olam, osmon, kitob, somon, ketmon, ostona** singari. O'qituvchi o'quvchilarning topqirligi, shu bilan birga, husnixatiga ham baho qo'yib boradi. Bu o'yin o'quvchilarning yozuv malakalarini o'stiribgina qolmay, ularning og'zaki nutqini o'stiradi, so'z boyligini ham oshiradi

"Qarmoq" o'yini. Bu o'yin bolalar uchun juda qiziqarli bo'lib, bu o'yin uchun quyidagi jihozlar tavsiya qilinadi: **hovuzcha** (poyafzal qutisidan foydalanish mumkin), **20 sm.li tayoqcha** va uning uchida qarmoq o'rnida **magnit bo'lakchalari**, tumshug'iga skrepka qadalgan **rangli baliqchalar**. Baliqchalar suratining orqa tomoniga esa bo'g'inlar yozilishi mumkin. O'quvchilar baliq tutish uchun qarmoqni hovuzchaga tashlaydilar va baliq tutadilar, qarmoqqa ilingan baliqlarga yashiringan bo'g'inlar yordamida zudlik bilan so'z topa olishlari, doskaga yozishlari va estafeta tayoqchasini o'rtoqlariga topshirishi lozim. Masalan: **bo** bo'g'iniga doir so'zlar: **bola, bobo, bozor, botir, Bobur, boraman** kabi yoki **no** bo'g'iniga doir so'zlar: **kino, noto'g'ri, nomus, nodon, noma, salomnoma, tasanno, bino, minora** kabi. O'qituvchi tutilgan baliqlarni sanab, o'quvchilar ishini kuzatib turadi. Ko'p baliq tutgan va chiroyli yozgan guruh g'olib deb topiladi. Bu o'yinni o'quvchilarning yoshiga qarab yanada murakkablashtirish mumkin

Adabiyotlar ro'yxati:

- Abdullayev Y. Hamrohim (Yangi alifbo va imlodan qo'llanma). T., "O'qituvchi", 1996.
- Abdullayeva Q., Nazarov H., Yo'ldosheva SH. Savod o'rgatish metodikasi. T., "O'qituvchi", 1996.
- Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009
- G'ulomov M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. T., "O'qituvchi", 1992. →